

TALONCHILIK JINOYATINING TUSHUNCHASI VA TAVSIFI

Suyunov Shahzodbek Shovkatovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

“Tergov faoliyati” kafedrası o'qituvchisi

Ilhomova Zebo Bahrom qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o'quv kursi 325-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15687071>

Annotatsiya: Ushbu maqola talonchilik jinoyatining mohiyati, tushunchasi va tavsifini huquqiy nuqtai nazardan tahlilini, talonchilikning boshqa jinoyatlardan ajralib turuvchi xususiyatlarini, uning ochiqdan-ochiq amalga oshirilishini, jabrlanuvchining xayoti yoki sog'lig'i uchun bevosta xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish yoki shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishga asoslangan usulini, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikni, mazkur jinoyatlarni fosh etishning kriminalistik va amaliy tahlillarini yoritib o'tgan. Talonchilik jinoyatining jamiyatda xavfsizlik va mulk daxlsizligiga salbiy ta'siri xususida xulosa qilingan.

Kalit so'zlar

Talonchilik, talon-taroj qilish, zo'rlik, zo'rlik ishlatish, mol-mulk, ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish, issiq izida fosh etish, mulk daxlsizligi.

Talonchilik jinoyati deganda, o'zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish tushuniladi. Bunda aybdor, jabrlanuvchi va boshqalarning ko'z oldida o'zganing mol-mulkini egallab olayotganligini va ular uning harakatlarining jinoiy xususiyatini tushunganligini anglaganda, o'zganing mulkini oshkora talon-taroj qilish talonchilik hisoblanadi. Talonchilik jinoyati deganda jabrlanuvchiga nisbatan hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoki ishlatmasdan mulkni ochiqchasiga talash tushiniladi. Talon-taroj qilish deganda, o'zganing mulkini o'zining yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun, mulkdorga yoki ushbu mulkning boshqa egasiga zarar keltirib qonunga xilof tarzda va haq to'lamay olib qo'yishdir. Talon-taroj qilishning obyekti o'zgalar mulkidir¹.

Talonchilik uchun O'zbekiston Respublikasi JKning 166moddasida javobgarlik masalasi berilgan. Bunda talonchilikning kvalifikatsiya tarkibi sog'liq va hayot uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish, yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish kabi o'ziga xos belgini o'z ichiga oladi².

Xuddi jismoniy zo'rlik kabi, jismoniy zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish orqali ruhiy zo'rlik ham talonchilikning kvalifikatsiya belgisi hisoblanadi. talonchilikda zo'rlik mulkdorga, shuningdek, real holda yoki aybdorning fikricha, talon-tarojga to'sqinlik qiluvchi boshqa shaxslarga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Insonga nisbatan zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish talonchilik turining mohiyatini o'zgartiradi³.

¹ Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал муносабатларда ҳимоячининг иштироки // “Адвокатлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. ЎзР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. – Тошкент, 2010. Б. 171-175.

² Б.Б.Муродов. Хусусий айблов институтини қўллаш самарадорлигини ошириш йўллари // Хусусий айблов ва ярашув институтларини такомиллаштириш чоралари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015й.Б. 34-40.

³ Хушвактова Н.А. Коррупцияга оид жиноятларни фох қилиш ва тергов қилишда жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш // «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини

Bunday hollarda jinoyat 2 obyektli bo'lib qoladi: mulk munosabatlari bilan birga sog'liq, shaxsiy erkinlikni va badan daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetadi yoki ularga bevosita xavf tug'iladi.

Talenchilikning bevosita obyekti o'zganing mol-mulkini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar va shu mulkka bo'lgan mulk huquqi hisoblanadi. Ammo, qonunchilikda belgilanishicha, talenchilik hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik bilan yoki shunday zo'rlikni ishlatish bilan qo'rqitish yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, alohida jinoiy-huquqiy muhofaza hollarda fakultativ obyekt jabrlanuvchining sog'lig'i va daxlsizligi ham bo'lishi mumkin. Talenchilikning predmeti bo'lib, aybdor haqiqiy va faraz qilingan huquqlar asosida ham egalik qilishi mumkin bo'lmagan o'zganing mulki hisoblanadi. Obyektiv tomondan talenchilik o'zganing molmulkini ochiqdan-ochiq talon-toraj qilishda ifodalanadi. Mulknı ochiqdan-ochiq talontoraj qilish usuli ikkita: obyektiv va subyektiv xususiyatlarga ega⁴.

Ochiqdan-ochiq talon-toraj qilishning obyektiv xususiyati aybdor tomonidan o'zganing mulkini mol-mulk egasi yoki mol-mulk ixtiyorida yoxud muhofazasida bo'lgan shaxslarning, o'zganing mulki talon-toraj qilinayotganligini anglab turgan begona kishilarning ko'zi oldida talontoraj qilishda namoyon bo'ladi. Ochiqdan-ochiq talon-toraj qilishning subyektiv xususiyati shundaki, talonchi o'zganing mulkini ochiq-oydin talontoraj qilayotgan vaqtida o'zining xatti-harakatlari mulk egasi tomonidan yoxud mol-mulk tasarrufida bo'lgan yoki begona shaxslar tomonidan kuzatib turilganligini anglaydi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, qilmishni talenchilik sifatida kvalifikatsiya qilishda yuqoridagi ikkita xususiyatning birgalikda mavjud bo'lishi talab etilmaydi.

Talenchilikning obyektiv xususiyati yordamchi vazifani bajaradi hamda qator holatlarda umuman hisobga olinmasligi ham mumkin. Obyektiv belgilar sharoitga qarab o'zgaruvchanlik xususiyatini o'zida kasb etadi⁵.

Agar aybdor tomonidan o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilish mol-mulk egasi yoki begona shaxslar tomonidan bilib qilingan bo'lsa, ammo shunga qaramay, jinoyatchi o'zganing mulkini tortib olish yoki qo'ldan bermaslik uchun hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitsa yoxud shunday zo'rlik ishlatrsa yoxud zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilsa, aybdorning o'g'rilik sifatida boshlangan harakatlari talenchilikka aylanadi va qilmish JK 166-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi⁶.

Biroq, aybdor qo'lga tushib qolishdan qo'rqib, talon-toraj qilingan narsani tashlab, hodisa joyidan qochib yashirinsa, uning harakatlari o'zganing mulkini o'g'irlashga suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Agar ochiqdan-ochiq o'zganing mulkini talon-toraj qilish harakatlari boshqa jinoiy

такомиллаштириш масалалари»: республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент давлат юридик университетининг ихтисослаштирилган филиали, Т: 2022. Б.78-83.

⁴ Ш.С.Агоев., Ташев У. Экспертиза фаолиятининг арманистон республикаси жиноят-протсессуал қонунчилигидаги ҳуқуқий асослари //Развитие и инновации в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 48-56.

⁵ Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг муҳим жиҳатлари. “Талқин ва тадқиқотлар” Республика илмий-услубий журнали 10сон. 01.10.2022 йил Б. 105-109.

⁶ Ш.Ш.Суюнов. Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг жиноят содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг айбини исботлашдаги аҳамияти. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси.

harakatlar, nomusga tegish, bezorilik va boshqa jinoyatlar sodir etish bilan bog'liq ravishda sodir etilgan bo'lsa, bu holda harakatlarni jinoyatlarning jami tariqasida tegishli jinoyatlar bilan tavsiflash lozim. Ta'kidlaganimizdek, talonchilik ikki xil ko'rinishda bo'ladi: zo'rlik ishlatmasdan sodir etiladigan (JK 166-moddasi 1-qismi) va zo'rlik ishlatib sodir etiladigan (JK 166-moddasi 2-qismi «a» bandi). Zo'rlik ishlatmasdan sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik JK 166- moddasi 1-qismida nazarda tutilgan. Shaxs mulkni «yulib» olib ketsa, uning harakatlari JK 166-moddasining 1-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, ashyolar solingan sumkani jabrlanuvchining qo'lidan tortib olish, bo'ynidan zanjirni uzib qochish, boshidan telpakni yulib olish, peshtaxtadan tovarni changallab olib qochish va h.k. Bunda aybdor tomonidan mol-mulkni talon-toroj qilish uchun hech qanday zo'rlik ishlatilmaydi. O'zganing mol-mulki talon-toroj qilingan va aybdorda talon-taroj qilingan mol-mulkni o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etish imkoniyati paydo bo'lgan paytdan e'tiboran talonchilik tugallangan jinoyat deb hisoblanadi. Subyektiv tomondan talonchilik to'g'ri qasd bilan g'arazli maqsadda sodir etiladi⁷.

Jinoyatchi talonchilikni sodir eta turib, o'zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglaydi hamda ushbu qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan biladi va shunday oqibat kelib chiqishini xohlaydi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning subyeksi 14 yoshga to'lgan, aqli raso har qanday jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. JK 166-moddasining 2-qismida:

- a) hayot va sog'lig'i uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib;
- b) ancha miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish deganda, badanga yengil shikast yetkazish tushunilishi lozim. Bunday zo'rlik jabrlanuvchiga jismoniy azob beruvchi yoki uning erkinligini cheklab qo'yuvchi harakatlarda ifodalanishi mumkin. Jabrlanuvchini zo'rlik ishlatib xonaga qamab, bog'lab qo'yish, og'ziga latta tiqib qo'yish va h.k. shular jumlasidandir. O'zganing mulki talontaroj qilinayotgan vaqtda zo'rlik ishlatib, shaxs erkinlikdan mahrum qilingan bo'lsa, aybdorning qilmishi zo'rlik ishlatib sodir qilingan talonchilik hisoblanadi (JK 166moddasi 2-qismi)⁸.

Aybdor jabrlanuvchi bilan to'qnashmaslik, uning mol-mulkni tortib olinishiga to'sqinlik qilishining oldini olish maqsadida zo'rlik ishlatmasdan erkinlikdan mahrum etsa (aybdor turgan xona eshigini qulflab qo'ysa), aybdorning harakatlari zo'rlik ishlatmasdan sodir etilgan talonchilikni vujudga keltiradi (JK 166-moddasi 1-qismi). Jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish jabrlanuvchini mol-mulkni berishga yoki uning talon-toroj qilinishiga to'sqinlik qilmaslikka majbur qilish maqsadida

⁷ Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларини сотиш мақсадисиз ноқонуний ишлаб чиқариш, олиш, сақлаш, жинояти тушунчаси // Жамият ва инновация. – 2025. – В. 6. – Но 1/С. – Б. 267-277.

⁸ А.Т.Аширбоев. Жиноят ишини тўхтатиш тушунчаси ва аҳамияти. Эксперткриминалистик фаолият: истиқболлар ва инновациялар мавзусидаги халқаро конференция материаллари тўплами. Т., Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси, 2023. – Б. 381-388.

unga ruhiy ta'sir ko'rsatishdan iboratdir⁹.

Qo'rqitish mol-mulk egasiga yoxud mol-mulk ixtiyorida yoki muhofazasida bo'lgan shaxsga nisbatan yoxud mol-mulkni talon-toraj qilish begona shaxslar ko'zi oldida sodir etilayotgan bo'lsa, o'sha shaxslarga qaratilgan bo'lishi mumkin. Talonchilikda qo'rqitish haqiqatda mavjud va real bo'lishi kerak¹⁰.

JK 166-moddasi 3-qismida:

- a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- b) uy-joyga, omborxona yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib;
- v) ko'p miqdorda sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 166-moddasi 4-qismida:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsidivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 25.01.2020 йилдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // [Электрон манба].
3. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. –Т., 2009. – Б. 199.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.4. –Т., 2002. – Б. 47.
5. Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факултети 2009. Б. 66-69.
6. Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал муносабатларда ҳимоячининг иштироки // “Адвокатлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. ЎзР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. – Тошкент, 2010. Б. 171-175.
7. Б.Б.Муродов. Хусусий айблов институтини қўллаш самарадорлигини ошириш йўллари // Хусусий айблов ва ярашув институтларини такомиллаштириш чоралари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015й.Б. 34-40.
8. Б.Б.Муродов. “Жиноятларни тергов қилиш методикаси” фанидан ўқув дастури. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. Б.24
9. Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг муҳим жиҳатлари. “Талқин ва тадқиқотлар” Республика илмий-услубий журнали

⁹ Н.Қ.Усманиев. Протсессуал муддатларнинг ҳисоблашда қўлланилувчи меъзонларнинг айрим жиҳатлари //проблемс анд солутионс оф ссиентифис анд инновативе ресеарч. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 25-30.

¹⁰ Ш.С.Агоев., Шакирова С. Қийнаш жиноятини тергов қилиш: назария ва амалиёт //Развитие и инновации в науке. –2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 75-81.

10сони. 01.10.2022 йил Б. 105-109.

10. *Ш.Ш.Суюнов.* Компютер техника воситалари орқали содир этилган фирибгарлик жинояти турлари. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси. 9.06.2023 йил

11. *Ш.Ш.Суюнов.* Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг жиноят содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг айбини исботлашдаги аҳамияти. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси.

12. *Ш.Ш.Суюнов.* Гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларини сотиш мақсадисиз ноқонуний ишлаб чиқариш, олиш, сақлаш, жинояти тушунчаси // Жамият ва инновация. – 2025. – В. 6. – Но 1/С. – Б. 267-277.

13. *А.Т.Аширбоев.* Айбланувчининг қаерда эканлиги номаълум бўлган ҳолларда жиноят ишини тўхтатишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. Жамият ва инновациялар № 1 (2024).– 2024. – 314-320 б.

14. *А.Т.Аширбоев.* Жиноят ишини тўхтатиш тушунчаси ва аҳамияти. Эксперткриминалистик фаолият: истиқболлар ва инновациялар мавзусидаги халқаро конференция материллари тўплами. Т., Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси, 2023. – Б. 381-388.

15. *А.Т.Аширбоев.* Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дастлабки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. 95-98 б.

16. *А.Т.Аширбоев.* Суриштирув ва дастлабки терговни тўхтатиш институти: халқаро тажриба ва ўзбекистон қонунчилигини такомиллаштириш истиқболлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 14. – С. 37-42.

17. *Н.Қ.Усманиев.* “Оқилона муддат” тамойилини жорий этиш назарий ва амалий жиҳатлари //Наука и инновации в системе образования. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 44-50.

18. *Н.Қ.Усманиев.* Жиноят ишини юритишни тўхтатиш ва тиклаш муддатлари билан боғлиқ айрим мулоҳазалар //Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2025. – Т. 4. – №. 6. – С. 40-47.

19. *Н.Қ.Усманиев.* Протсессуал муддатларнинг ҳисоблашда қўлланилувчи меъзонларнинг айрим жиҳатлари //проблемс анд солутионс оф ссиентифис анд инновативе ресеарч. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 25-30.

20. *Н.Қ.Усманиев.* Байназов Ж. Ўғирлик жинояти бўйича ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг янги усуллари //Наука и инновации в системе образования. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 69-74.

21. *Ш.С.Агоев., Шакирова С.* Қийнаш жиноятини тергов қилиш: назария ва амалиёт //Развитие и инновации в науке. –2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 75-81.

22. *Ш.С.Агоев., Абдухамидов А.* Гувоҳлантириш тергов ҳаракатини ўтказишнинг аҳамияти //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 49-51.

23. *Ш.С.Агоев., Асатуллаев Д.* Ахборот технологиялари соҳасидаги ўғирлик жиноятларни тергов қилишнинг ўзига хос хусусиятлари //Общественные науки в

современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 31-35.

24. *Ш.С.Азоев, Ташев У.* Экспертиза фаолиятининг арманистон республикаси жиноят-протсессуал қонунчилигидаги ҳуқуқий асослари // Развитие и инновации в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 48-56.

25. *Хушвактова Н.А.* Факторы, препятствующие эффективному использованию общественного участия в досудебном производстве / Н.А. Хушвактова // Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения: сб. ст. по материалам LXV Международной научно-практической конференции «Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения». – № 11(65). – Москва, Изд. «Интернаука», 2022. DOI:10.32743/25419889.2022.11.65.346588

26. *Хушвактова Н.А.* Коррупцияга оид жиноятларни фoш қилиш ва тергов қилишда жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш // «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш масалалари»: республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент давлат юридик университетининг ихтисослаштирилган филиали, Т: 2022. Б.78-83.